

SUD-PSIXOLOG EKSPERT FAOLIYATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Elov Ziyodulla Sattorovich

Ilmiy rahbar.

Sulaymanov Akram Ahmatovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12656484>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentligi va emotsiyal intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsiyal va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, sotsial-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ekspert shaxsi, emotsiyal intellekt, kasbiy faoliyat.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT ACTIVITY.

Abstract. This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Keywords: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКСПЕРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА.

Аннотация. В статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога, а также совершенствование ее специфических социально-психологических компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных качеств. компоненты судебной психологии; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

KIRISH

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda sud psixologik ekspertizasi ekspertlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixologik ekspertizasi ekspertlari psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy fazilatlarini ro'yobga chiqarish, psixokorreksion usullar orqali faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi sotsial-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Sotsial-psixologik kompetentlik bilan bog'liq manbalarni tadqiq qilganimizda unga aloqador bo'lgan tahlillar tadqiqotimizda sud psixolog ekspertining sotsial-psixologik kompetentligi ularning kasbiy kamoloti jarayoniga bog'liqligini yana bir jabhadan yoritishga undadi. Bu esa sotsial-psixologik kompetentlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanmish emotsiyalarning intellektning sud psixolog eksperti faoliyatida o'zaro aloqadorlikda rivojlanish jarayonini alohida tadqiq qilishni talab qiladi. Zamonaviy psixologiyada «emotsional intellekt» tushunchasi keng qo'llanilib, ushbu tushunchani fanga P. Selov va Dj. Meyerlar olib kirdilar. Mualliflarning fikricha, emotsiyalarning intellekt - emotsiyani ifoda etish va baholash qobiliyati; emotsiyani tushunish va emotsiyalarning bilimlarga egalik; qolaversa, shaxsning emotsiyalarning intellektual kamolotini o'zaro birlashtiruvchi emotsiyalarning boshqaruv qobiliyati hisoblanadi.

"Emotsional intellekt" terminini fanga kiritilishi bilan emotsiyalarning bilish jarayonlarining nisbati nuqtai nazaridan tadrijiy o'zgarish yuz berdi. Emotsiyalarni tadqiq qilish ko'pincha intellekt tadqiqotlaridan alohida tarzda amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, affektiv va kognitiv (bilish) jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarni tizimli tahlil qilishning dastlabki urinishlari amalga oshirilmoxda. Nemis psixologi va faylasufi G.Mayerning "Psychologie des emotionalen Denkens" (1908) nomli kitobida tafakkur turlarining mukammal tasnifi keltirib o'tilgan. G.Mayer "hukm qiluvchi" tafakkur turi bilan birga emotsiyalarning tafakkurni ajratib ko'rsatadi, unda amaliy ehtiyojlar - iroda va his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Bu tafakkur turlarini bir-biriga taqqoslagan G.Mayer ular o'rtasidagi bir qancha umumiyliliklarni, xususan: o'xshash mantiqiy jarayonlar kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi (sharhlash, ob'ektivlashtirish, kategorial apparat faoliyati).

Shunga qaramasdan, emotsiyalarning intellekt tafakkur harakatlarida mantiqiy tafakkurdan farqli tendensiya mavjud bo'lib: unda bilish jarayoni "ko'lankali, orqa fonga surilgan, diqqat markazi amaliy maqsadga qaratilgan bo'lib, unda bilish shunchaki qo'shimcha vosita sanaladi" G.Mayer emotsiyalarning tafakkurni affektiv (estetik va diniy) va irodaviy turlarga ajratadi. Estetik tafakkur deyilganda, "yoqadi - yoqmaydi" ko'rinishidagi mulohazasini o'z ichiga oladigan estetik kechinmalar tushuniladi. Diniy tafakkurda esa fantaziyaning emotsiyalarning tasavvurlari, e'tiqod fikrlari (irrotsional, affektiv hamda irodaviy istak bilan yuzaga keladigan "Olloh mavjud" mulohazasi namuna bo'ladi)ga kiritiladi. G.Mayerning tadqiqotlari go'yoki tafakkurda bilishga bo'lgan qiziqish ikkinchi darajali hisoblanishi haqidagi "intellektual xurofotlar"ni tarqatadi va "emotsional tafakkur" insonnинг aqliy faoliyatida ahamiyatli rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. 1970-1980 yillarning oxirlariga kelib emotsiya va tafakkurning o'zaro ta'sirini o'rganishga doir qiziqish ortib bordi. Bu davrda emotsiyalarning bilishga kognitiv jarayonlarning o'zaro samarali ta'siri haqidagi

qarashlar ko'pgina tadqiqotlarda o'z isbotini topdi. Masalan: tafakkur realligiga depressiyaning ta'sirini o'rganish inson kayfiyatining o'zgaruvchanligi va kreativlikka moyillikning o'zaro bog'liqligi shuningdek, emotsiyalarning o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatlarini o'rganish, kayfiyat va fikr-mulohazani birlashtiruvchi "kognitiv halqa" mavjudligi haqidagi gipoteza ilgari surilgan edi.

Bunday qarashning mohiyati shundaki, salbiy his-tuyg'ular negativ fikrlarga olib keladi va o'z navbatida emotsiyalarning tezligini kuchaytirib yuboradi. Qolaversa, ijobiy emotsiyalar pozitiv fikrlarni faollashtiradi. R.Lazarusning kognitiv konsepsiyasida emotsiyalarning bilish determinatsiyasi haqidagi g'oya markaziy hisoblanadi. Kognitiv bavosita ifodalanishn emotsiyalarning paydo bo'lishidagi zarur sharti sifatida baholanadi. R.Lazarusning konsepsiyasida asosan ikki ta holat muhim hisoblanadi:

1) mohiyatidan qat'i nazar har bir emotsiyalni reaksiya o'ziga xos turdagini kognitiv yoki baho funksiyasi;

2) emotsiyalni javob reaksiyasi qandaydir sindromni o'zida ifodalaydi, uning har bir alohida qismi umumiy reaksiyadagi qandaydir muhim lahzani o'zida aks ettiradi.

Intellektning ko'plab turdagisi kategoryalarining imkoniyatini aniqlagan X.Gardner 1983 yilda "intropsixik qobiliyatlar" (introspeksiya - o'zini-o'zi kuzatish qobiliyati) va "shaxsiy qibiliyatlar" deb ataluvchi turli intellektual qobiliyatlarning mavjud bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi fikr bildirdi. Gardner dastlab intellektning yetti turini ajratib ko'rsatadi: vizual-makonli, verbal-lingvistik, mantiqiy-matematik, tana-harakatli, musiqali-ritmik, shaxslararo va ichki shaxsiy; 1998 yilda tabiiy va mavjudlik turlari qo'shildi. Har bir intellektual qobiliyat hayot faoliyatining muayyan sohasida muvaffaqiyatga erishishda muhim hisoblanadi. Intellektning har bir komponenti qimmati muayyan intellektual qobiliyatlarning rivojlanishiga rag'batlantiruvchi va rag'batlantirmaydigan umumiy mezonlar orqali aniqlanadi. Gardner har bir yangi aniqlanadigan intellekt turi (shakl)ga mos keladigan mezonlarni taklif qildi. Avvalo, har bir intellekt shakli o'zining belgilar tizimiga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, u o'zining asosiy operatsiyalari yoki funksiyalari tizimiga tayangan holda dalillarni olish kerak. Gardnerning modeli yanada integrallashgan, shu bilan birga, intellekt tabiatini va paydo bo'lish shakllariga bo'lgan farqli qarashni amalga oshirishga imkon berdi. E.Doll, D.Veksler va R.Liperlar tomonidan boshlangan tadqiqotni R.Sternberg davom ettirdi. Natijada "real hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarga moslashish, o'zgartirish yoki tuzatish qobiliyati" sifatida belgilangan "amaliy intellekt" konsepsiysi paydo bo'ldi. R.Sternbergning nazariyasida intellekt shaxsning atrof-muhitga moslashishiga xizmat qiluvchi informasion tizim sifatida qaraladi. Triarxik nazariyaning asosiy mazmuni quyidagicha: "Intellektni aqliy o'z-o'zini boshqarish, butun hayotni konstruktiv maqsadga yo'naltirilgan usul yordamida aqliy boshqarish sifatida belgilash mumkin" Aqliy o'z-o'zini boshqarish uch asosiy elementni o'z ichiga oladi: atrof-muhitga moslashish, yangi atrof-muhit ta'sirini tanlash yoki shaxs bilan mosmuhitni tanlash va atrof-muhitni shakllantirish. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kamolotida sotsial- psixologik kompetentlikni rivojlanishida emotsiyalni intellekt orasidagi uyg'unlikni baholashda N. Xoll tomonidan yaratilgan "Emotsional intellektni o'rganish" metodikasini tanladik. Test natijalarining dastlab umumiy natijalari xususida to'xtalsak, so'ngra uning sotsial intellekt bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishga harakat qilamiz. A.Adler emotsiyal intellekt haqida to'xtalar ekan, shaxsning muomalaga qobiliyatini IQ emas, balki uning emotsiyal ekvalenti emotsiyal intellekt(YeQ) eng muhim ko'rsatkichi sifatida belgilaydi, degan edi. Sud

psixolog ekspertlarining emotsiyalarning umumiyligi natijalari uchta shkalasi bo'yicha yuqori va ikkita shkalasi bo'yicha o'rta natijani qayd etmoqda. Ulardagi emotsiyalarning bilimdonlik (13,73 ball) yuqori darajadan o'rin egallaganligi shaxs kechinmalarining chegaralari, shaxslararo munosabatlardagi his-tuyg'ularni anglash, emotsiyalarning intellektning ikki tomoni, ya'ni o'zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida kreativ impulslar va intuisiyalarni ta'minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, inson emotsiyasining vazifalari haqidagi tushunchalarga, faoliyat jarayonida emotsiyalarning barqarorlik va beqarorlik, stressli holat, depressiya va ularni yengib o'tish yo'llarini qidirish haqidagi psixologik va hayotiy tajribadan xabardor ekanligini ko'rsatmoqda. Aynan emotsiyalarning sovadxonlik YeQning muhim jihatni sifatida shaxs xususiyatlari va individualligiga singib boradi.

O'yaymizki, Sud psixolog ekspertlarining emotsiyalarning savodxonligining bu darajasi sudga oid psixologik ekspertizai jarayonida vujudga keladigan psixologik buzilishlar, emotsiyal zo'riqishlar, Sud psixolog ekspertlarining o'zaro munosabatlarini hissiy tushunishiga nazariy jihatdan yetarlicha tayyorligini anglatadi. YeQ ning ikkinchi ko'rsatkichi "o'z emotsiyasini boshqarish" Bu shkala bo'yicha Sud psixolog ekspertlari o'rtacha qiymatni namoyon etgan bo'lib, unda Sud psixolog ekspertlarining emotsiya to'g'risidagi nazariy bilimlarini amaliyotda joriy etishda bir oz ortda qolayotganliklar, qiyin vaziyatlarga duch kelganda emotsiyalarning zo'riqishlarga berilishi, atrofdagilarni tushunishda asabiyashishlari mumkinligidan dalolat bermoqda (12,02 ball). Bu holatni ushbu kasbining mashaqqali mehnati oqibatidir deb baholashimiz mumkin. Emotsional intellektning yana bir muhim funksiyasi bu shaxsning psixik ko'tarinkilagini quvvatlash, unda o'ziga ishonch tuyg'usi va rag'batni ta'minlashdan iboratdir.

Sud psixolog ekspertlarining mazkur yo'nalishdagi emotsiyalarning jihatlarini "o'z-o'zini rag'batlantirish" shkalasi qiymatlari bilan izohlashga to'g'ri keladi. "O'z-o'zini rag'batlantirish" shkalasidagi ko'rsatkichlar o'rtacha daraja bilan cheklangan (12,29 ball). Sud psixolog ekspert emotsiyalarning intellektining ushbu shkalasida ham sud psixolog ekspertlar bo'yicha ular emotsiyasining muhim funksilari va imkoniyatidan foydalanish yo'l va usullarini ko'rsatish lozim bolilar ekan. Tahlil etilayotgan natijalar umumiyligi bo'sisidagi psixolog ekspertlarining vazifalari bo'yicha sotsial psixologik kompetentlik bilan bog'liq holati tahlil etilayotganda yangi ma'lumotlar bilan taqdim etish imkoniyati tug'ilardir. Agar "o'z-o'zini rag'batlantirish" shkalasi natijalariga ko'ra, sud psixolog ekspertlarining emotsiyalarning imkoniyatini o'z-o'zini rag'batlantirish, tushkunliklar, ruhiy zuriqishlar va kezi kelganda yutuqlarga erishganda hamundan yetarlicha qoniqish olishning psixologik usullarini bilishi kerak. Ammo, keyingi "empatiya" shkalasi qiymatlari ancha ijobjiydir (13,09 ball). Empatiya sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Sud psixolog ekspertlarining hamkasblarini va atrofdagilarni tushunishida empatiya muhimdir. Amaliyotda empatiyaning yetishmasligi turli darajadagi nizolarga va o'zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatdan Sud psixolog ekspertlari anchagina yiroq deya olamiz. "O'zga insonlarning kechinmalarini sezish" shkalasi natijalari ham aynan empatiyaniki singari yuqori qiymatlidir (12,11 ball). Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kamolotiga ko'ra shaxslararo munosabatlarda o'zaro tushunish, o'zga insonlarning kechinmalarini his etish, ularga o'z munosabatini bildira olishi, verbal va noverbal xulq-atvorigagi o'zgarishlarni baholashga qobiliyatatliliklari emotsiyalarning intellekt natijalarida o'z aksini topmoqda.. Natijalarda

umumiy qiymatlarni yoritgan singari o'rtacha qiymat nuqtai nazardan emas, balki intellektlar orasidagi ichki munosabatni korrelyatsion tahliliga tayanildi.

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida sud psixolog ekspertlari sotsial-psixologik kompetentligi omillarini har biri o'ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi qayd etildi va bu uslub, o'z navbatida, ijtimoiy psixologiya fanidagi sotsial-psixologik kompetentlik samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy. Sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlanishida emotsional intellektning o'rni beqiyos. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan talablarning o'sib borganligi hamda ijtimoiy tajribalarning shakllanganligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentlik omillari ko'rsatkichlarining oshishi bevosita ularning kasbiy faoliyatida tajribaning oshishi bilan bir qatorda ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllanishi bilan ham bog'liq.

Sud psixolog ekspertlari kamolotida sotsial-psixologik kompetentlikning roli faoliyat davomiyligining oshishi bilan bir qatorda shaxs ijtimoiylashuviga ham bog'liqdir. Umuman, sud psixolog ekspertlari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi sotsial-psixologik kompetentlikni ko'rsatkichlariga baho berishda, ularning adekvat muloqotmandligi, adekvat emotsional munosabati kabi omillarini chuqr o'rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

REFERENCES

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233237.
2. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76
3. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017